



EZGULIK, SAXOVAT VA MURUVVAT AYYOMI **2**

“O‘ZMETKOMBINAT” AJ TARAQQIYOT YO‘LIDA **4-5**

MAHALLIYLASHTIRISH – IQTISODIY RIVOJLANISH OMILI **6**

Po‘lat o‘tda toblanadi, odam – mehnatda

Metallurg Minbari



O‘zbekiston metallurgiya kombinati aksiyadorlik jamiyatining ko‘p nusxali gazetasi

2024-yil 27-mart № 3 (1537)
Gazeta 1992-yil 7-martdan nashr etilmoqda



MUKOFOT MUBORAK BO‘LSIN!

Xalqaro xotin-qizlar kuni munosabati bilan mehnatda erishayotgan yutuqlari uchun va jamoat hayotida faol bo‘lgan xotin-qizlar taqdirlandi. Ular qatorida Elektrda po‘lat eritish bo‘linmasi kran mashinisti Shahnoza Patxitdinova "Shuhrat" medali, Ijroiya apparati Yuridik departamentida bo‘lim boshlig‘i vazifasida ko‘p yillar fidokorona mehnat qilgan Roza Ismoilova "Mo‘tabar ayol" ko‘krak nishoni bilan mukofotlandi.

Mukofot muborak bo‘lsin!

BUGUNGI SONDA

BAYRAM SHUKUHI

"Olam nurga to‘lsin sen bilan, Navro‘z!" **3**

NIGOH

Yirik davlat arbobi, buyuk sarkarda **6**

KO‘NGILLI VOLONTYORLAR

Ezgu maqsad yo‘lida birlashganlar **7**

KORRUPSIYA

Ochiqlik va shaffoflik **8**

SO‘RAGAN EDINGIZ

Intizomiy jazo olgan xodimga ustama to‘lanmaydimi? **9**

SALOMATLIK

Tushkunlik kasallikmi yoki... **10**

SPORT

Futbol mavsumi qizg‘in tus olmoqda **11**

TAFAKKUR

Iskandarning bo‘sh ketgan qo‘li **12**



NAVRO‘Z BILAN KELADI SHODLIK, NAVRO‘Z BILAN ELDA OBODLIK

Navro‘z oddiy bayram emas, balki xalqimizning tarixi, falsafasi, tushuncha tasavvurlari, qadriyatlarini o‘zida mujassam etgan, millat bilan ulg‘ayib, millat bilan birga taraqqiy etgan bayram. Bu bayram qadim-qadim zamonlardan buyon elimiz ardoqlab kelayotgan, elimizni, yurtimizni ulug‘lab kelayotgan bayram.

Ayniqsa, bugun, jamiyatimizda inson qadri yuksalib, bebaho boyligimiz – yerimiz, suvimiz va tabiatimiz-

ga, shu boradagi necha ming yillik an‘analarimizga e‘tibor kuchayib borayotgan Yangi O‘zbekiston sharoitida bu bayramning hayotimizdagi o‘rni va ahamiyati yanada ortib bormoqda.

Yurtimizda yashayotgan barcha millatlar, elatlar uchun birdek sevimli ayyom bu yil ham o‘lkamizning barcha joylarida umumxalq sayillari shaklida ko‘tarinki ruh va yuqori darajada keng nishonlandi.

RAMAZON MUBORAK !

EZGULIK, SAXOVAT VA
MURUVVAT AYYOMI

Xalqimiz asrlar davomida buyuk diniy qadriyat, saxovat va mehr-oqibat ramzi sifatida e'zozlab kelayotgan muborak Ramazon hayiti – Iyd al-Fitr keyingi paytda ijtimoiy hayotimizda yanada mustahkam o'rin egallab bormoqda.

Ramazon hayiti – katta shodiyona, xursandchilik va ko'tarinki ruhda o'tadigan muborak bayram. Chunki ushbu kun tutgan ro'zalarimiz qabul bo'ladigan, Allohning rahmati va fazli mo'l-ko'l yog'iladigan ajoyib palladir. Shu bois hayitda barchamiz xursandchiligimizni, saxovatimizni va yuksak axloqimizni har qachongidan ko'ra ko'paytirishimiz zarur.

Ramazon ro'zasi bizlarga bir-birimiz bilan yanada ahil, totuv bo'lib yashashni, bag'rikeng bo'lishni, faqat o'zimiz uchun emas, o'zgalari uchun ham kamarbasta, fidoyi bo'lishni o'rgatadi. Chunki yurtimizda tinchlik va osoyishtalik bardavom bo'lishida, Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligi yuksalishida bu insoniy fazilatlarining o'rni beqiyosdir.

Ramazon oyini qanday ixlos, g'ayrat va sabr bilan o'tkazayotgan bo'lsak, hayit bayramini ham o'shanday fayzli qilib o'tkazishimiz kerak. Hayitdan maqsad, ko'ngillarga xushnudlik, nafs-

larga sevinch, jismga rohat bag'ishlash, do'stlar, yaqinlar o'rtasida muhabbat, qarindoshlar, qarindoshlar orasida mehr rishtalarini yangilash, kishilarni bir-birlariga yordam va saxovat ko'rsatishga chorlashdir.

Hayit munosabati bilan qo'ni-qo'shnilarga taom ulashib, ular ziyorat qilinsa, qavmu qarindoshlarning holidan xabar olinsa, xursandchiliklar yanada ziyoda bo'ladi.

Hayit bayramida yosh bolalarni xursand qilishga, bu kunning boshqa kunlardan farqli musulmonlarning bayrami ekanini anglatishga ham alohida e'tibor qaratish lozim. Bunda ularga hayitlik sovg'alar ulashish, istirohat bog'lariga yoki o'yingohlarga olib borib o'ynatib kelish maqsadga muvofiq. Shuningdek, hayit bayramining shodliklaridan ehtiyojmand oilalarning farzandlarini ham bahramand qilishga urinish komil musulmonlik belgilaridan biridir.

Yaqinlashib kelayotgan muborak Ramazon hayiti barchamiz uchun shodlik va hurramlik ayyomiga aylansin! Bu kun shodu xurramlik ayyomi, qutlug' bayram ekan, uning shukrini ado etish, ushbu muborak kunda hammamizga ardoqli ota-onalarimiz, qavmu qarindoshlarimiz, ulug'larimiz ziyoratiga borib, ularning duolarini olish, betob, ehtiyojmand kishilar holidan xabar-dor bo'lish, yordamga muhtoj kishilarga qo'ldan kelganicha xayr-saxovat ko'rsatish, bir-birlarimizni hayit bilan muborakbod etish, eski gina-kuduratlarini unutib, silai rahmni va insoniy munosabatlarni tiklab olish va shu tariqa Alloh



taoloning rahmat va mag'firatiga sazovor bo'lish har bir musulmonning bayram kunlaridagi eng savobli amallari sanaladi.

Hayit kunining tongidan g'usl qilib, xushbuy atirlar sepib va eng go'zal, yangi yoki toza kiyimlarimizni kiyib, hayit namozi o'qilguncha hech narsa yemay, namozgohga bormog'imiz sunnat amaldir.

Hayit kunlari duolar qabul qilinadigan kundir. Bu kunda ba'zi joylarda odamlar urf qilib, to'p-to'p bo'lib qabristonga, azador xonadonlarga borishi, yig'i-sig'i qilishi shar'an durust emas. Bunday noshar'iy amallardan qaytaylik, o'zimizni ortiqcha bid'at amallardan saqlaylik. Buning o'rniga Allohning tinchlik, xotirjamlik kabi ne'matlariga shukr qilib, erta tongdan hayit namozini ado etib, ko'pchilik bilan qo'llarimizni duoga ochsak, qalbimizdagi istaklarimizni Yaratgandan so'rasak, inshaalloh, buning savobi o'zimizga ham, bizdan umidvor bo'lib yotganlarga ham yetib boradi.

Niyati pok, maqsadlari ulug' xalqimizning Ramazon kunlarida qilayotgan toat-ibodatlari va duolari ijobat bo'lsin!

Parvardigori olam doimo yo'limizni ham, yuzimizni ham yorug' qilsin! Yurtimizni, elimizni turli balo-qazolardan O'zi asrasin! Xalqimizning yanada farovon bo'lishini nasibu ro'zi aylasin.

Vatanimiz tinch, xalqimiz sog'-salomat bo'lsin!

Kelayotgan Ramazon hayiti barchamizga muborak bo'lsin!

Ramazoni sharif el-yurtimizga qut-baraka, har bir xonadonga shodu xurramlik, yangi yutuq va omadlar olib kelsin!

Abdusalom ABDULLAYEV.

EHTIROM KO'RSATILDI

Mehnatsevar, fidoyi, zahmatkash opa-singillarimizni har qancha qardlasak oz. Ular – hayotimiz ko'rki, jamiyat tayanchi va ishonchi. Tengsiz lafot va nafosat sohibasi, ezgulik va fidoyilik ramzi bo'lish bilan birga ular og'ir sanoatda, shu jumladan metallurgiya sohasida erkaklar bilan yonma yon ishlamoqdalar. Shu bilan birga xonadonlarimizning fayzu farishtasidir ular.

Ijroiya apparati majlislar zalida bo'lib o'tgan kombinat ayollarini taqdirlash marosimida shular xususida so'z bordi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "8-mart – Xalqaro xotin-qizlar kuni munosabati bilan mukofotlash to'g'risida"gi Farmoni asosida "O'zmetkombinat" AJning Elektrda po'lat eritish bo'linmasi kran mashinisti Shahnoza Patxitdinova "Shuhrat" medali bilan taqdirlandi. Ijroiya apparati Yuridik departamentida bo'lim boshlig'i vazifasida ko'p yillar fidokorona mehnat qilgan Roza Ismoilova "Mo'tabar ayol" ko'krak nishoni bilan

mukofotlandi. Shuningdek, 8-mart – Xalqaro xotin-qizlar kuni munosabati bilan Ovqatlanish kombinati boshlig'i Marhabo Holiqova Prezidentimizning tabriknomasini oldi. Matbuot xizmati boshlig'i Sarvinoz Sheraliyeva esa O'zbekiston Respublikasi Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi tomonidan "Faxriy yorliq" bilan taqdirlangan edi. Tarkibiy bo'linmalar rahbarlari ishtirokida bo'lib o'tgan bu tadbirda "O'zmetkombinat" AJ boshqaruv raisi – bosh direktor Rashid Pirmatov so'zga chiqib, mukofotlar bilan taqdirlangan bu ayollarni tabrikladi. Yig'ilishda kombinat rahbarlari ham Shahnoza Patxitdinova va Roza Ismoilovani mukofot bilan tabriklashdi va o'zlarining eng yaxshi tilaklarini bildirishdi.

Shahnoza Patxitdinova va Roza Ismoilovaga milliylikimiz ramzi chopon va do'ppi kiydirildi hamda qimmatbaho sovg'alar taqdim etildi.

Sheroz SHUKURALIYEV.



"OLAM NURGA TO'LSIN SEN BILAN, NAVRO'Z!"

NAVRO'Z BILAN ELDA OBODLIK

Ona zamin va tabiatga mehr-muhabbat, saxovat va muruvvat, bunyodkorlik va oliyjanoblik kabi xalqimizga xos ezgu fazilatlar eng qadimiy bayramimiz bo'lgan Navro'z timsolida asrlar davomida ulug'lanib, sayqal topib kelmoqda.

Noyob fazilatlar bilan bugun ham ezgulik va taraqqiyotga xizmat qilayotgan, Navro'zi olam yurtimizda amalga oshirilayotgan ulkan o'zgarish va yangilanishlarga mos holda, har tomonlama yuksak saviyada o'tkazildi.

Navro'z arafasida - 16, 17 va 18-mart kunlari butun mamlakatimizda bo'lgani kabi kombinatimizda ham an'anaviy umumxalq xayriya hashari bo'lib o'tdi. Bu yilgi tadbir "Obod va fayzli mahalla - yurt ko'rki" shiori ostida o'tkazildi.

Kombinatda daraxtlar o'tqazish, parvarish qilish, shakl berish hamda obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish, tarkibiy bo'linmalar atrofini tartibga keltirish ishlari olib borildi. Hashar jarayonida to'plangan chiqindilar alohida belgilangan joylarga olib chiqildi.

18-mart kuni Navro'zga bag'ishlangan asosiy tantanalar shahrimizdagi "Yoshlar bog'i"da tashkil etildi. "O'zmetkombinat" AJning Bekobod shahar hokimligi bilan hamkorlikda tashkil etilgan saylni Bekobod

shahar hokimi Nasrullo Boboyev bayram tabrigi bilan ochib berdi.

Badiiy havaskorlik guruhlarining chiqishlarini hamshaharlarimiz olqishlar bilan kutib olishdi. Bayram saylida kombinatimizning ham paviloni joy oldi.

"O'zmetkombinat" AJ Boshqaruv raisi - bosh direktor Rashid Pirmatov boshchiligidagi kombinat rahbariyati bayram saylida tashkil etilgan ko'rgazmalar bilan tanishdi.

Kombinat ishchi-xodimlari va kombinat Birlashgan kasaba uyushmasi qo'mitasiga qarashli Metallurglar madaniyat saroyi ijodiy jamoalarining turli chiqishlari bayram sayli ko'rkiga ko'rk qo'shdi.

Bayram saylida tashkil etilgan ko'rgazmalar, sport o'yinlari bekobodliklar bayram kayfiyatiga ko'tarinkilik ulashdi.



Xalqaro xotin-qizlar bayrami kombinatimizda katta tantana bilan nishonlandi. Metallurglar madaniyat saroyida ushbu ayyom munosabati bilan bayram tadbiri tashkil etildi.

Bu tantanali bayram tadbirini "O'zmetkombinat" AJ Boshqaruv raisining o'rinbosari - umumiy masalalar bo'yicha direktor Akmal Sharipov ochib, yig'ilganlarni bayram bilan qutladi. Kombinat Birlashgan kasaba uyushmasi qo'mitasi raisi Elzara Veliullayeva ham barchani bayram bilan tabriklab, o'zining samimiy dil izhorlarini bildirdi.

Ular kombinatimizda namunali mehnatlari bilan barchaga o'rnak bo'lib kelayotgan xotin-qizlarga "Tashakkurnoma" hamda esdalik sovg'alari topshirdilar.

Ushbu tadbirda bayram munosabati bilan o'tkazilgan viktorinada dastlabki uch o'rinni egallaganlar Diplom hamda esdalik sovg'alari bilan taqdirlanishdi.

Bayram tantanasining badiiy qismila Metallurglar madaniyat saroyi ijodkorlari tomonidan kuy-qo'shiqlar ijro etildi. Xalqimizning sevimli "Qahqaha" guruhining kulgu ustalari Tohir Rahimov va Sohob Hasanovlar o'zlarining hajviy chiqishlari bilan barchaga xushkayfiyat ulashdi. Estradamizning yorqin yulduzi Sevinch Mo'minova tomonidan kuylangan qo'shiqlar bayram ishtirokchilariga yanada ko'tarinki kayfiyat baxshida etdi.

Hurmat va ehtirom e'tibor va rag'batdan mamnun ko'ngillar yuksaldi. Kombinatimizning faol xotin-qizlari sharafiga tashkil etilgan bayram tadbirida xotin-qizlar e'zozlandi, ulug' va muhtarama ayolga yuksak ehtirom ko'rsatildi.

Ismoil INOMOV.

Metallurglar madaniyat saroyida 2023-yilda jamoa shartnomasi va uning ilovalarining bajarilishi bo'yicha "O'zmetkombinat" AJ mehnat jamoasining konferensiyasi bo'lib o'tdi.

MEHNAT JAMOASI KONFERENSIYASI

INSON MANFAATLARI - OLIY QADRIYAT

Konferensiyada "O'zmetkombinat" AJ Boshqaruv raisi - bosh direktor Rashid Pirmatov hamda Birlashgan kasaba uyushmasi qo'mitasi raisi Elzara Veliullayeva ma'ruza qilishdi. Ularning kombinatning 2023-yildagi ishlab chiqarish, iqtisodiy, ijtimoiy sohalariga to'g'risidagi hisobotlari tinglandi.

Shuningdek, konferensiyada Elektrda po'lat eritish bo'linmasi boshlig'i Qobuljon Rasulov, Navli prokatslash bo'linmasi kasaba uyushmasi raisi Abduvosid Ergashev, Rangli metallar ishlab chiqarish bo'linmasi boshlig'i o'rinbosari Farrux Egamberdiyevlar so'zga chiqishdi.

Konferensiyada "O'zmetkombinat" AJ Boshqaruv raisining o'rinbosari - umumiy masalalar bo'yicha direktor Akmal Sharipov jamoa shartnomasi va uning ilovalarining 2023-yilda bajarilishi to'g'risidagi dalolatnomasi bilan yig'ilganlarni tanishtirdi.

Konferensiyada kun tartibiga kiritilgan boshqa bir qator masalalar ham ko'rib chiqildi.

Konferensiya davomida ishtirokchilardan kelib tushgan savollarga Boshqaruv raisi - bosh direktor Rashid Pirmatov, Bekobod shahar hokimi Nasrullo Boboyev hamda kombinat Birlashgan kasaba uyushmasi qo'mitasi raisi Elzara Veliullayeva batafsil javob berdilar. Konferensiyada O'zbekiston Metallurgiya va mashinasozlik sanoati tarmoqlari xodimlari Kasaba uyushmalari Respublika Kengashi raisi, "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan sanoat xodimi" Ahmadjon Haqulov so'zga chiqib, mamlakatimizda kasaba uyushmalari tomonidan olib borilayotgan ishlar va kelgusi rejalar haqida ma'ruza qildi.

Konferensiyada "O'zmetkombinat" AJ mehnat jamoasining 2023-yilda jamoa shartnomasi va uning ilovalarining bajarilishi qoniqarli deb baholandi.

Shukur ALIYEV.

XOTIN-QIZLAR E'ZOZLANDI



KOMBINATNING ISHGA TUSHGANLIGIGA 80 YIL TO‘LDI

“O‘ZMETKOMBINAT” AJ TARAQQIYOT YO‘LIDA

MARKAZIY OSIYODA QORA METALLURGIYA SANOATI TO‘NG‘ICHI VA MAMLAKATIMIZDA NAVLI PROKAT MAHSULOTLARI, PO‘LAT ZOLDIRLAR ISHLAB CHIQRUVCHI YETAKCHI KORXONA BO‘LGAN O‘ZBEKISTON METALLURGIYA KOMBINATI ISHGA TUSHGANLIGIGA 80 YIL TO‘LDI.

QISQA MUDDATLARDA ZAVOD ISHGA TUSHDI

1941-yil 18-iyunda O‘zbekistonda metallurgiya zavodi qurishga qaror qabul qilingan edi. 1942-yil O‘zbekiston hukumati va sobiq ittifoq Qora metallurgiya xalq komissariati Toshkent, Chirchiq, Yangiyo‘l va Begovot atroflarida korxonalar qurish uchun mo‘ljallangan hududlarni o‘rgandi. Shundan so‘ng maxsus qaror asosida Begovot qishlog‘i atrofidagi maydoncha zavod qurilishi uchun tasdiqdan o‘tdi. Bu joyning tanlanishi bejiz emas edi: suv seroblighi, mahalliy qurilish ashyolarining yetarliligi, temiryo‘l, keyinchalik GES qurilishi hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘ldi.

1942 yilning kuzida “Dalvarzin” dashtlari va Sirdaryo sohili bo‘yida afsonaviy Farhod qoyalari yonida joylashgan Begovot qishlog‘ida quruvchilarning dastlabki guruhi ish boshladi.

Tarixan qisqa davrda quruvchi va metallurglarning fidokorona mehnatlari tufayli kuchli shamollar yo‘lidagi Begovotda, suronli urush yillarida, umumxalq hashari yo‘li bilan O‘zbekiston metallurgiya zavodi qad ko‘tardi. 1944-yil 5-mart kuni – marten pechidan birinchi po‘lat eritmasi olindi. Shu kun O‘zbekiston metallurgiya zavodi ishga tushgan sanaga aylandi.



metallurglar unutmaydilar. Mahalliy yigitlardan Anvar Toshpo‘latov, Hofiz G‘aniyev, Yigitali Mavlonov, Ibrohim Husnitdinov, Abdurahim Ortiqov, Tojiali Akbarov, Chingiz Mahmudov, Obid Hojimatov, Olim Mirzayev kabilar O‘zbekistonning dastlabki po‘latini eritishda ishtirok etish sharafiga muyassar bo‘lgan edilar.

Bir yildan keyin, 1945-yil 7-mayda hukumat qarori bilan Begovot qishlog‘i Bekobod shahriga aylantirildi. Kombinat mahsulotlari O‘zbekistonni oyoqqa turg‘azishda, xalq xo‘jaligini tiklashda asqotdi. Unga talab juda katta edi. Oradan bir yil o‘tmay marten sexining ikkinchi pechi ishga tushirildi. Undan bir oz o‘tib navli prokat sexi mahsulot bera boshladi. Keyingi yil oxiriga borib esa marten sexining uchinchi pechi ishga tushirildi.

JUDA KATTA HAJMDAGI ISHLAR BAJARILDI

Jamoaning mehnat yutuqlari ko‘paygan sari turmush tarzida ham o‘shish bo‘layotgani metallurglarning mehnat faolligini oshirib, kayfiyatini yaxshilardi.

Korxonalar ahli turdosh mehnat jamoalari orasida tashkil etilgan musobaqalarda ko‘p bor g‘olib chiqqan.

Yetmishinchi yillarga kelib O‘zbekiston metallurgiya zavodida o‘n yil davom etgan bunyodkorlik, qayta qurish, rekonstruksiya ishlari natijasida



ULAR NOMI TARIXDA QOLDI

Birinchi o‘zbek po‘lati eritmasi olishda qatnashganlar “O‘zmetkombinat” Ajning tarixidan munosib joy oldi, nomlari kombinat tarixiga doir kitoblar sahifalarida bitildi. Kostyanov, Gilyazetdinov, Shelovanov, Jilyaev, Mayshev, Timonin, Shtirov, Petrov, Averkova, Lukyanchenko, Grudinin, Gordeev kabi rus va ukrain po‘lat erituvchilarining xizmatlarini bekobodlik

juda katta hajmdagi ishlar bajarildi. 1978-yilning 17-avgustida EPESning yiliga 250 ming tonna po‘lat eritish quvvatiga ega bo‘lgan birinchi pechi ishga tushirildi. Birinchi raqamli elektr pechi tayyorlanayotgan mahsulotni uzluksiz quyish qurilmasi, podstansiya va kislorod-kopressor sexi majmuasi bilan birga foydalanishga topshirildi.

1979-yilning sentabr oyigacha yana ikkita pech uzluksiz po‘lat quyish mashinalari bilan birga ishga tushdi. 1984-yil 30-iyulda yana bir navli prokat sexi foydalanishga topshirildi.

Korxonalar katta hududni egallagan zamonaviy shaharchani eslatardi. Shu davrlarda 2,5 ming nafar atrofidagi ishchilar soni to‘rt baravarga oshgan va 10 ming kishiga yetgan edi. Shunga yarasha zavodda ishlab chiqarish ikki baravardan ham ziyodga oshgan edi. 1978-yilda zavodda 336,8 ming tonna po‘lat eritilib, 366,7 ming tonna prokat mahsulotlari, 17,7 mln. so‘mlik sirlangan idishlar ishlab chiqarilgan edi. 1985-yilda esa 839,3 ming tonna po‘lat eritildi, 755,2 ming tonna prokat mahsulotlari, 47,7 mln. so‘mlik sirlangan idishlar tayyorlandi.

(Davomi 5-betda).

“O‘ZMETKOMBINAT” AJ TARAQQIYOT YO‘LIDA

(Davomi. Boshlanishi 4-betda).

YANGILANIB BORISH YO‘LIGA O‘TIB OLDI

Mustaqillikning dastlabki yillari bozor iqtisodiga o‘tish arafasida ko‘p korxonalar uchun qiyinchiliklar paydo bo‘ldi. Lekin O‘zbekiston metallurgiya kombinati barcha qiyinchiliklarni yengib, to‘g‘ri yo‘lga tushib oldi, bozor iqtisodiyotiga o‘tishdan cho‘chimadi, aksincha boshqa korxonalar



bilan iqtisodiy aloqalarni uzmadi. Keyingi yillarda kombinat o‘zgacha bir sharoitda rivojlanib, yangilanib borish yo‘liga o‘tib oldi. Mustaqillik yillarida yangi loyihalar, ishlab chiqarish tizimida o‘zgarishlar, yangiliklar va yangilanishlar amalga oshirilmoqda.

Bugungi kunda kombinatda ishlab chiqarishni rekonstruksiyalash, texnikaviy qayta jihozlash va modernizatsiyalash bo‘yicha uzluksiz ishlar davom etmoqda. Bu kombinatda yuqori sifatli eksportga yo‘naltirilgan raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishga imkon yaratdi. Ular qatoriga po‘lat armaturalar, polosalar, ugoloklar, po‘lat zoldirlar, sirlangan po‘lat idishlar, misdan va mis qotishmalaridan tayyorlangan lentalar, folgalar, ferrosilitsiy va ferrosilikomarganes, o‘ramdagi po‘lat simlar, issiqlikni o‘tkazmaydigan materiallar, gazsimon suyuq argon va boshqalar kiradi.

Investitsiya g‘oyalari asosida qo‘shimcha sexlar barpo etish yo‘li bilan yangi prokatlar turi ko‘paytirilib, iqtisodiyotni rivojlantirish bo‘yicha kombinat yuqori pog‘onaga ko‘tarildi. Eksport salohiyatini oshirish, import o‘rnini bosadigan mahsulotlar turini ko‘paytirish kombinatning asosiy vazifasi bo‘lib qoldi.

YANGI DAVR BOSHLANDI

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning keyingi yillarda uch marotaba Bekobodga tashrif buyurib, metallurgiya kombinatida olib borilayotgan ishlar bilan yaqindan tanishishi, shubhasiz, kombinat xodimlari jamoasiga yanada yangi kuch-g‘ayrat bag‘ishladi.

Ayniqsa, davlatimiz rahbarining Bekobod shahri va “O‘zbekiston metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyatiga 2017-yil 18-avgust kungi tashrifi faoliyatimizda katta tarixiy voqea bo‘lgan edi. Tashrif davomida Prezidentimiz “O‘zmetkombinat” aksiyadorlik jamiyatining yangi istiqbolli loyihalari bilan tanishib, ishlab chiqarish quvvati va moliyaviy-iqtisodiy holatini tubdan yaxshilash chora-tadbirlarini belgilab berdi. Aynan shu davrdan boshlab “O‘zmetkombinat”da ulkan bunyodkorlik ishlarining yangi davri boshlandi, desak, adashmaymiz.

Shu davrdan boshlab faoliyatimizda bir qator ustuvor vazifalar belgilanib,



kombinat faoliyatini yanada takomillashtirish, uni mamlakatimiz iqtisodiyoti hamda ijtimoiy hayoti uchun manfaatdor bo‘g‘inga aylantirish hamda ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish ishlari boshlandi.

DOLZARB MASALA

Bu vazifalar qatorida ishlab chiqarishning ekologiyaga salbiy ta‘sirini kamaytirish masalasi ham mavjud. Ma‘lumki, dunyo mamlakatlarida har yili qattiq maishiy chiqindilar miqdori aholi jon boshiga nisbatan 1 foizga oshib bormoqda. Energetika, rangli va qora metallurgiya, kimyo sanoati va qurilish industriyasi ob‘ektlari chiqindi hosil qiluvchi, atrof-muhitni ifloslantiruvchi asosiy manbalar hisoblanadi. Tabiat muhofazasi me‘yorlari tobora kuchayib borayotgan bir davrda sanoat chiqindilari utilizatsiyasi muammosi har qachongidan-da dolzarb. Shu maqsadda, kombinatda po‘lat eritish jarayonida hosil bo‘ladigan shlak qoldiqlarini qayta ishlashga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Bugungi kunda issiq xoldagi shlaklarni qayta ishlash natijasida shlakdan metallni ajratib olish texnologiyasi yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, bu ham ekologik jihatdan foydali, ham iqtisodiy jihatdan yaxshi samara beradi. Ushbu texnologiya tufayli kombinatda shlak uyumlarining hajmi kamayib, po‘lat eritishdan qo‘shimcha xomashyo olish ortmoqda.

“Ekologik shaffoflikka erishayotgan, chiqindilarni kamaytirib, tabiatga



do‘stona munosabatda bo‘layotgan korxonalar ESG reytinglarining eng nufuzli xalqaro provayderlaridan biri bo‘lgan CDP (Carbon Disclosure Project) xalqaro ekologiya tashkiloti tomonidan baholanib boriladi. Joriy yilda “O‘zbekiston metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyatiga O‘zbekiston Respublikasida birinchi marta CDP tomonidan “C” bahosi berildi. Bu natija global o‘rtacha ko‘rsatkichga to‘g‘ri keladi va CDP tomonidan kombinatning iqlim o‘zgarishi sohasidagi keng ko‘lamli masalalari bo‘yicha xabardorligi va ko‘rilayotgan chora-tadbirlari tan olinishini bildiradi.

TIZIMLI ISHLAR AMALGA OSHIRILMOQDA

Yutuqlarimiz borasida to‘xtalsak, ularning orasida “O‘zmetkombinat” AJ va “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” AJ hamkorligida ishlab chiqarish kooperatsiyasi aloqalari doirasida O‘zbekistonda birinchi marta og‘irligi 42 tonna bo‘lgan butlovchi qism tayyorlanmasini ishlab chiqarish o‘zlashtirilgani ham bor. 2022-yildan shu paytgacha “O‘zmetkombinat” AJ tomonidan jami 8 dona shunday butlovchi qism tayyorlandi.

Bugungi kunda bozor munosabatlari metall prokati mahsulotining sifatiga yuqori talablarni qo‘yadi. “O‘zmetkombinat”ning barcha mahsulotlari haqiqiy sertifikat sinovlaridan o‘tgan. Navli prokat, po‘lat zoldirlar, sirlangan po‘lat idishlar va boshqa mahsulotlarning sertifikatlari yaqin va uzoq xorijiy davlatlar iste‘molchilari tomonidan yuqori baholanmoqda.

Bunyodkorlik ko‘lami kengaygani sari metall prokati mahsulotlariga bo‘lgan talab yanada ortib borayotir. Shu tufayli kombinat yildan yilga yuqori sifatli metall prokati mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini oshirib, mahalliy iste‘molchilarning hamda eksport buyurtmalarini samarali bajarib kelmoqda. Korxonada 1978-yil 336,8 ming tonna po‘lat eritilib, 366,7 ming tonna prokat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2023-yilda 920,7 ming tonna po‘lat eritilib, 1 million 28,1 ming tonna prokat mahsulotlari tayyorlanganini ko‘rsatmoqda.

Shuningdek, bugungi kunda kombinatda boshqa bir nechta yo‘nalishlarda ham tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Diyor ZULFIQOROV.

9-APREL - SOHIBQIRON AMIR TEMUR TAVALLUD TOPGAN KUN

YIRIK DAVLAT ARBOBI, BUYUK SARKARDA

Amir Temur o'rta asrning yirik davlat arbo-bi, buyuk sarkarda, kuchli, markazlashgan davlat asoschisi, ilm-fan va madaniyat homiysi hisoblanadi.

Sohibqironning to'liq ismi Amir Temur ibn Amir Tarag'ay ibn Amir Barqul. U 1336-yil, 9-aprelda Shahrisabz yaqinidagi Xo'ja Ilg'or qishlog'i (hozirgi Yakkabog' tumani)da tug'ilgan va 1405-yil, 18-fevralda Xitoyga yurishi chog'ida O'tror shahrida vafot etgan.

Tarix Amir Temurni makedoniyalik Iskandar, Doro I, Yuliy Sezar kabi yirik sarkardalar bilan bir qatorga qo'yadi.

Amir Temurning hayoti va faoliyatida ikki davr yaqqol ko'zga tashlanadi. Birinchi davri (1360-1385) Movarounnahrni mo'g'ul xonligidan ozod qilib, yagona markazlashgan davlat tuzib, o'zaro urushlarga barham berdi. Ikkinchi davri (1386-1405) esa ikki yillik, uch yillik, besh yillik, deb ataluvchi boshqa mamlakatlarga yurishlari bilan ifodalanaadi.

1370-yilda Balxda bo'lib o'tgan qurultoyda ulug' amir deb e'lon qilingan Amir Temur Movarounnahr taxtining haqiqiy sahibi bo'ldi va Samarqandni hokimiyat poytaxti etib belgiladi.

Amir Temur taxtga o'tirgach, Chig'atoy ulu-sining barcha yerlariga o'zini voris deb bildi



va Sirdaryoning quyi havzasidagi yerlarni, Toshkent viloyatini, Farg'ona vodiysini, Xorazmni – Markaziy Osiyo davlatlarini o'z hukmronligi ostiga kiritdi. Natijada, Movarounnahr va Xurosonda yirik markazlashgan davlat vujudga keldi. Sohobqiron Eron, Iroq, Zakavkaze mamlakatlari, Hindiston, Oltin O'rda va Turkiya bilan bo'lgan janglarda g'olib chiqib, saltanat hududini sharqda Xitoy devoriga qadar, g'arbda – O'rta yer dengiziga, janubda esa Hindiston chegaralariga qadar kengaytirdi.

Tarix Temur zimmasiga Oltin O'rdadek qudratli mo'g'ul imperiyasining asosini yemirishdek

ulkan vazifani qo'ydi. Sohobqiron bu vazifani ham buyuk jasorat bilan ado etadi. Oltin O'rda qaramog'ida bo'lgan Rus knyazliklari va Sharqiy Ovro'po xalqlarini mo'g'ullar asoratidan xalos bo'lishlariga yo'l ochib berdi. Yirik rus olimi A. Y. Yakubovskiy: "Temurning To'xtamish ustidan qozongan bu g'alabasi nafaqat Markaziy Osiyo va Sharqiy Yevropa, balki Rossiya uchun ham katta ahamiyatga molik bo'ldi", deb yozdi.

Sohobqiron dunyoning 27 mamlakatini musax-xar qildi. Taxminan mingdan ortiq jang o'tkazdi, ularda zafar hamisha Sohobqiron tomonida bo'ldi.

Amir Temur mamlakatda ma'naviyatning qo'lab-quvvatlanishi, yuksalishi va o'tmish davrlarning oliy an'analari tiklanishi uchun shart-sharoit yaratdi. Temuriylar sulolasi vakillarining ma'naviyat va madaniyatga alohida e'tibori tufayli XIV-XVI asrlarda yuksak ilmiy va ijodiy yutuqlarga erishildi.

Bugun jahonning ellikdan ortiq mamlakatida temurshunos olimlar ilmiy izlanishlar olib bormoqda. Temur va Temuriylar davriga bag'ishlangan ko'plab kitoblar chop etilmoqda. O'tgan olti yuz yil mobaynida Yevropa tillarida Amir Temurga bag'ishlab yozilgan salmoqli asarlarning soni 500 ga yetdi, Sharq tillarida esa 900 dan oshdi.

MAHALLIYLASHTIRISH

IQTISODIY
RIVOJLANISH
OMILI

Joriy yil yakunida kombinatda mahalliyashtirish dasturi doirasida jami 940,1 milliard so'mlik mahsulotlar ishlab chiqariladi.

Bugungi kunda kombinatda Mahalliyashtirilgan mahsulotlar ishlab chiqarilishi natijasida import hajmi qisqarib bormoqda. Xususan, joriy yil yanvar oyida mahalliyashtirish dasturi doirasida jami 35,2 milliard so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarilishi ta'minlandi va o'sish sur'ati 74,0 foizni tashkil etdi. Ta'kidlash joizki, kengaytirilgan loyihalar doirasida A-500 markali armatura 30,5 milliard so'm qiymatida o'zlashtirildi va Respublika miqyosida import hajmi 2,5 million dollar miqdorida maqbullashtirildi. Importni qisqartirish yuzasidan amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida 2024-yil yanvar oyi rejasi 100 foizga bajarilgan edi. Fevral oyida esa jami 69,7 milliard so'mlik import o'rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarilib, reja prognozga nisbatan 100,6 foizga bajarildi.

Joriy yil I chorak yakuni bo'yicha mahalliyashtirish dasturi doirasida jami 126,7 milliard so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarilishi ta'minlanadi va o'sish sur'ati 72,1 foizni tashkil etadi. Ta'kidlash joizki, kengaytirilgan loyihalar doirasida A-500 markali armatura 103,2 milliard so'm qiymatida o'zlashtiriladi va Respublika miqyosida import hajmi 8,2 million dollar miqdorida maqbullashtiriladi. Importni qisqartirish yuzasidan amalga oshi-



rilayotgan chora-tadbirlar natijasida 2024-yil I chorak yakuni bo'yicha jami 10,0 million dollarlik import o'rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqariladi.

2024-yil yakuni bilan mahalliyashtirish dasturi doirasida jami 940,1 milliard so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarilishi ta'minlanadi va o'sish sur'ati 109,1 foizni tashkil etadi. Shuningdek, yangi loyihalar doirasida mahsulotlar 763,8 milliard so'm qiymatida o'zlashtiriladi va Respublika miqyosida import hajmi 60,4 million dollar miqdorida maqbullashtiriladi. Importni qisqartirish yuzasidan amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida 2024-yil yakuni bo'yicha jami 74,4 million dollarlik import o'rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarilishi kutilmoqda.

Doniyor SHODIYEV,
mahalliyashtirish va sanoatda kooperatsiya aloqalarini kengaytirish bo'limi boshlig'i.



MUHIM BO'LINMALAR DAN BIRI

Sirdaryo viloyatining Shirin shahrida joylashgan Mexanika bo'linmasi "O'zmetkombinat" AJning muhim bo'linmalaridan biri hisoblanadi.

1994-yil 24-mart kundan "O'zmetkombinat" AIBning tashkil etilishi munosabati bilan "Shirin" mashinasozlik zavodi kombinat tarkibiga qo'shildi. Bu zavodning nomi 2002-yildan 3-ta'mirlash mexanika, 2005-yildan mexanika sexi, deb nomi o'zgartirildi. Bu bo'linmaning Ishlab chiqarish, Asbob-uskunalar, Mexanika xizmati, Elektr jihozlariga xizmat ko'rsatish va Obodonlashtirish, Tikuvchilik uchastkalari mavjud.

Mexanika bo'linmasi Elektrda po'lat eritish bo'linmasi, Zoldir prokat bo'linmasi, Navli prokat bo'linmasi hamda temir parchalarini qayta ishlash, issiqlik o'tkazmaydigan materiallarni ishlab chiqarish bo'linmasidagi asbob-uskunalar hamda yuk ko'tarish mexanizmlari uchun eng kerakli ehtiyot qismlarni yetkazib beradi. Shuningdek, Tikuvchilik uchastkasi ishchi-xodimlari Ferrocotishmalar ishlab chiqarish bo'linmasi uchun yiliga 16 000 dona "BIG-BEG" polipropilen qoplari va 8000 dona filtr yenglari ishlab chiqarmoqda.

Bu bo'linmaning ishlashi, ijtimoiy himoyasi bo'yicha barcha shart-sharoitlar yaratilgan. Quvonarli jihati, jamoada o'z kasbining haqiqiy ustalari, fidoiylari ko'pchilikni tashkil etadi. Har bir ishchi-xizmatchi sidqidildan mehnat qilmoqda.





FAXRIYLAR FAXRIMIZ

Metallurklar madaniyat saroyida "O'zbekiston metallurgiya kombinati" aksiyadorlik jamiyati tashkil topganligiga hamda birinchi o'zbek po'lati quyilganligining 80 yilligiga bag'ishlab mehnat faxriylari bilan davra suhbatini tashkil etildi.

Shu munosabat bilan o'tkazilgan tadbirga kombinatda fidokorona mehnat qilgan, o'z vaqtida mas'uliyatli vazifalarni zimmlariga olib, kombinat ishlab chiqarishi uchun o'zlarining munosib hissalarini qo'shishgan Marten sexi mehnat faxriylari tashrif buyurishdi.

Davra suhbatida Marten sexi po'lat erituvchisi Muhammadjon Yodgorov, mexanika bo'yicha sex boshlig'i o'rinbosari Mirza Rahimov, sex boshlig'i Olim Madmarov, brigada boshlig'i va kasaba qo'mitasi raisi Xudoynazar Yo'ldoshev va po'lat erituvchi vazifasida ishlagan, bugungi kunda Ferroqotishmalar ishlab chiqarish sexi erituvchisi vazifasida mehnat qilib kelayotgan "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan sanoat xodimi" Inomjon Nurmatovlar o'z hayot yo'llari va mehnat faoliyatlari haqida so'zlab berishdi. Shundan

so'ng yoshlar faxriylarga o'zlarini qiziqtirgan savollarini berishdi va ular tomonidan javoblar olishdi.

Tadbirga Metallurklar madaniyat saroyi ijodkorlari tomonidan diltortar kuy-qo'shiqlar ijro etildi.

Birlashgan kasaba uyushmasi qo'mitasi raisi Elzara Veliullayeva barcha ishtirokchilarni "O'zmetkombinat" AJning 80 yillik yubiley bayrami bilan tabrikladi. Faxriylarga kombinat rahbariyati va birlashgan kasaba uyushmasi qo'mitasi tomonidan "Tashakkurnoma" hamda esdalik sovg'alar topshirildi.

Davra suhbatini yakunida kombinatning 80 yillik yubileyi munosabati bilan ishchi-xodimlar o'rtasida o'tkazilgan viktorina g'oliblari taqdirlandilar. Ushbu viktorinada 1-o'rinni olgan Mexanika-ta'mirlash bo'linmasidan G'ofurjon Saidmurotov, 2-o'rinni egallagan Xalq iste'mol mollari ishlab chiqarishdan Nodira Do'rmonova hamda 3-o'rinni qo'lga kiritgan Qurilish-montaj bo'linmasidan Komil Mo'minovlarga Diplom hamda esdalik sovg'alari topshirildi.

Karim ISMATOV.

EZGU MAQSADLAR YO'LIDA BIRLASHGANLAR

O'z beg'araz yordamlari bilan ijtimoiy himoyaga muhtoj insonlarga yordam berish, xayriya loyihalarini tashkillashtirish, daraxt ekish, atrofni chiqindilardan tozalash kabi ko'plab yaxshi ishlarni amalga oshiruvchilar volontyorlardir. Ular biror foyda olish maqsadida emas, balki ezgu maqsadlar yo'lida birlashgan bunday kishilar kombinatimizda ham faoliyatlarini yo'lga qo'yganlar.

Kombinatda korporativ volontyorlar harakati - ko'ngilli yoshlar jamoasidir. O'tgan yil mart oyidan faoliyatini boshlagan korporativ volontyorlar harakatimiz kombinat rahbariyati, Xodimlarni boshqarish departamenti hamda Korporativ munosabatlar boshqarmasi xodimlari bilan hamkorlikda bir qator xayrli va savobli ishlarni amalga oshirishdi.

Biz birinchi navbatda ekologiya va atrof-muhit muhofazasi, aholining kam ta'minlangan qatlamlariga, nogironlarga, yetimlarga, qariyalarga va doimiy g'amxo'rlikka muhtoj yolg'iz insonlarga hamda bemorlarga yordam ko'rsatishga harakat qildik.

"O'zmetkombinat" AJ Korporativ volontyorlar harakati o'z faoliyatini Ohangaron "Muruvvat" nogironligi bo'lgan shaxslar uchun erkaklar internat uyiga amaliy yordam ko'rsatishdan boshlagan edi.

Shundan so'ng umumxalq bayramlarida, muhim sanalarda volontyorlar tomonidan aholining kam ta'minlangan qatlamlari, nogironlar, yetimlar, qariyalar va doimiy g'amxo'rlikka muhtoj yolg'iz keksalar hamda bemorlar holidan xabar olindi. Ularning ehtiyojlariga qarab ba'zi birlariga oziq-ovqat jamlanmalari berilgan bo'lsa, boshqalariga kiyim-kechaklar, yana birlariga esa dildan suhbat qurish bilan mehr, e'tibor va g'amxo'rlik ulashildi.

Bugungi kunda kombinatning asosiy kirish eshiklari oldiga harakatning maxsus qutilari joylashtirilgan. Bu qutilarga kombi-

nat ishchi-xodimlari turli kiyimlar va kunlik ehtiyoj buyumlarini, kitoblarga mo'ljallangan qutiga esa, turli xildagi kitoblarni qoldirishlari mumkin. Qutilarga yig'ilgan buyumlar ehtiyojmandlarga tarqatiladi.

Korporativ volontyorlar harakati jamoasi tomonidan bugungi kunga qadar 5 ga yaqin doimiy g'amxo'rlikka muhtoj yolg'iz keksalarning yashash uylari yengil ta'mirlandi hamda ichki va tashqi hovlilari tozalandi.

Korporativ volontyorlar harakati jamoasi tomonidan amalga oshirilayotgan bu kabi ishlardan barcha mamnun, ayniqsa, jamoa yordamini olgan insonlar. Biz ularningminnatdorchiligidan, cheksiz rahmatlaridan kelgusi ishlar uchun kuch olgan holda, bu yil bundanda ko'p va foydali ishlarni bajarish uchun harakat qilamiz. Buning uchun esa tegishli tartibda rejalashtirish ishlarini amalga oshirmoqdamiz. Avvalo mehnat faxriylari holidan xabar olishga alohida e'tibor qaratmoqdamiz. Navro'z bayrami kunlarida kombinat faxriylari xolidan xabar olindi. Shahrimiz umumiy o'rta ta'lim maktablariga kombinatda to'plangan kitoblarni topshirishni rejalashtirganmiz.

Umid qilamizki, insonparvarlik, bag'rikenglikni qo'llab-quvvatlovchi volontyorlar harakati tobora keng quloq otadi. Zero savobtalab insonlar oramizda ko'plab topiladi.

Abdug'affor MIRZAYEV,
"O'zmetkombinat" AJ Yoshlar yetakchilari Kengashi raisi.

MINNATDORCHILIK

METALLURGLARGA KATTA RAHMAT!

Bekobod shahar 2-sektor hududida "O'zmetkombinat" AJ homiyligida va "Birdamlik" mahallasidan saylangan xalq deputatlari Bekobod shahar Kengashi deputati D. Xolmurodov tashabbusi bilan savobli ishlar amalga oshirilmoqda. Aholi, ayniqsa, yoshlarga qulaylik yaratish, turmush farovonligini yanada yaxshilash uchun mahallamizda stadionlar qurilmoqda.

Mahallamizda stadion yo'q edi. Ularning birinchisi mahallamizning "Shoh bekat" ko'chasida bunyod etildi. Quruvchilar maxsus texnika vositalari yordamida shag'allar olib kelib, bolalar uchun stadion hamda futbol maydonchasiga beton quyish ishlarini sifatli ado etishgan edi. Endilikda bu stadiondan mahalla ahli foydalan-

moqda. Ayniqsa, bolalarimizga yaxshi bo'ldi. Ularning sport bilan shug'ullanishlari uchun yaxshi sharoitlar yaratildi.

Bu stadiondan so'ng yana ikkita o'yin-goh qurilishi boshlangan edi. Ikkinchi stadion Navro'z kuni foydalanishga topshirildi. Ayni kunlarda mahalladagi uchinchi stadion qurilishi davom etmoqda. Yerlar tekislanib, beton ishlari boshlandi.

Mahallamizdagi stadionlarni bunyod etishda Qurilish-montaj bo'linmasi jamoasi faollik ko'rsatmoqda. Ularga va bu stadion qurilishiga hissalarini qo'shgan kombinat, shahar rahbarlariga, metallurglarga, deputatimiz Davlatga katta rahmat.

"Birdamlik" mahalla fuqarolar yig'ini faollari.



OCHIQLIK VA SHAFFOFLIK – KORRUPSIYA ILLATINING OLDINI OLISHNING SAMARALI MODELI

Bugungi kunda Yangi O'zbekistonimizni barpo etishda, Jamiyatimizda adolat va qonun ustuvorligini so'zsiz ta'minlashga, ochiqlik siyosatini izchillik va qat'iyat bilan davom ettirishga va yangi yuksak darajaga chiqarishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Yuksalishni, taraqqiy etishni istagan, ishchi-xodimlarining farovonligiga intilgan har bir Jamiyat, avvalambor, o'zining xodimlari dardi va fikrini tinglashi, ularni o'ylantirayotgan muammolarni ochiqlik va shaffoflik bilan bartaraf etishi zarur.

Yangi O'zbekistonimizda 2016-yildan boshlangan o'zgarishlarning ilk nuqtasiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, eng avvalo, fuqarolar bilan muloqot qilish, insonlar dardini tinglash hamda ular tomonidan ko'tarilgan, Jamiyatning barcha a'zolarini o'ylantirib kelayotgan muammolarni hal etishdan boshlanganini his qildik.

Tabiiyki, bu muloqotlarda korrupsiya, byurokratiya, tanish-bilishchilik, talon-taroj qilish kabi masalalar ham tilga olinar edi.

Jamiyatimiz ishchi-xodimlari fikri asosida kombinat rivojiga to'siq bo'layotgan muammolarni hal etish bo'yicha yaqin, o'rta va uzoq muddatli maqsadlar belgilab olingan. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha jamiyatimiz siyosatining eng asosiy yo'nalishlari, xususan, jamiyatimiz ishchi-xodimlari ongida korrupsiyaga nisbatan murosasizlik munosabatini shakllantirish, korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlarni amalga oshirish, korrupsiyaviy holatlarning yuzaga kelishiga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf qilish, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni

sodir etganlik uchun javobgarlikning muqarrarligi tamoyilini ta'minlash va korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida barcha bo'lajak islohotlar uchun poydevor yaratishdir.

Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi o'zgarishlarni tahlil etganda, huquqiy asoslarning mustahkamlanishi yoki amaliy choratadbirlarning muntazam ravishda ko'rilayotganiga qaramasdan, 2024-yilda korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligini tubdan oshirish bo'yicha belgilangan vazifalarning ijrosini ta'minlash, korrupsiya holatlarining sabab va shart-sharoitlarini aniqlashda, ularni bartaraf qilishning ta'sirchan tizimini yaratishni va mukammallashtirib borishni taqozo etmoqda. Va bu tizimni yaratishda mehnatkashlik va halollik asosiy shiori bo'lgan jamiyatimiz ishchi-xodimlarining ishtiroki muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu bois ilg'or xorijiy tajriba asosida korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar to'g'risida axborot berayotgan shaxslarni himoya qilishning qonuniy asoslari yaratilib, korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki ushbu illatga

qarshi kurashishda ko'maklashgan ischi-xodimlarni rag'batlantirish mexanizmi joriy qilindi hamda raqamlashtirish orqali jamiyat faoliyatining barcha sohalarida inson omilini kamaytirish maqsadida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish ishlari yanada rivojlantirilmoqda.

Korrupsiyaga qarshi kurashish shunday jara-yonki, u sekinlashishni, bir dam tin olishni, turg'unlikni, ortga chekinishni kechirmaydi. Oldimizda turgan aniq maqsad va vazifalar ijrosini ta'minlashda kombinatimiz har bir ishchi-xodimi o'z hissasini qo'shishi lozim.

Korrupsiya va manfaatlar to'qnashuvi shunday illatlarki, ularni bir boshqarma yoki bo'linmaning sa'y-harakati bilan yo'q qilib bo'lmaydi. Qachonki, kombinatimizning barcha ishchi-xodimlari bu illatga qarshi kurashib, ular mavjud ildizlarini yo'q qilishga kirishilsagina ijobiy natijalarga erishish mumkin.

Bugungi kunda korrupsiya va manfaatlar to'qnashuviga qarshi kurashish kombinatimizda birlamchi umumiy maqsadga aylandi.

Kombinat ishchi-xodimlaridan korrupsiyaning har qanday shakliga nisbatan murosasizlik muhitini yaratishda mas'uliyat bilan ishtirok etishlarini so'rayman.

Sizlarni befarq bo'lmaslikka, poraxo'rlik va korrupsiya, qarindosh-urug'chilik, manfaatlar to'qnashuviga qarshi kurashda faol hayotiy pozitsiyani egallashga chaqiraman.

To'liqin XOJIYEV,

Korporativ xavfsizlik va resurslarni himoya qilish departamenti direktori.



QILG'ILIG'I UCHUN JAVOB BERDI

Ba'zi odamlar unga tegishli bo'lmagan narsaga ega bo'lish istagida o'g'irlikka, ishxonalarda tashmachilikka qo'l uradi. Bu istak shunchalik kuchli bo'ladiki, hatto yaxshi insonlar ham yomon ishlarga qo'l urishadi. Bundaylarni o'z vaqtida yaqinlari – oilasi, do'stlari, hamkasblari bu yo'ldan qaytarishlari kerak. Aks holda bu istak bir kun kelib uni sudning qora kursisiga o'tirishga majbur qiladi.

"Guruch kurmaksiz bo'lmaydi", deganlaridek metallurglar jamoasida ham kombinat mulkiga ko'z olaytiradiganlar uchrab turadi. Boshqalar mulkini yashirincha o'zlashtirish hech qachon yaxshilikka olib kelmaydi. Undaylarning albatta yuzlari shuvut bo'lib, qilgan nopok ishlari uchun javob berishadi.

Joriy yilning 13-fevral kuni, jinoyat ishlari bo'yicha Bekobod shahar sudida ko'rib chiqilgan ma'muriy ish ham boshqalarga ibrat bo'lishi lozim. Ya'ni ishchi-xodimlar ishxonasidan ruxsatsiz hech narsani o'zlashtirmasliklari zarur.

Shermatjon Djiyanov (ism va familiyasi o'zgartirilgan) 2023-yil 17-dekabr kuni "O'zmetkombinat" AJning Elektrda po'lat eritish bo'linmasining pech oralig'idagi avtominoradan umumiy qiymati 100 000 so'm bo'lgan 1 dona yoritish chirog'ini yashirincha olib qo'yg'an.



Bu holat kuzatuv kamerasiga tushib qoladi. Natijada huquqbuzarning yoritish chirog'ini olayotganligi fosh etiladi. Siri ochilib qolganidan so'ng u oradan ko'p o'tmay – 25-dekabr kuni yoritish chirog'ini qaytarib olib keladi.

Sud majlisida bu huquqbuzar aybini to'liq tan oladi. U "O'zmetkombinat" AJda ishlashligi, o'ziga birlashtirilgan hududdagi avtominoradan 1 dona yoritish chirog'ini yechib olganligiga iqror bo'ldi.

Sh. Djiyanov sud majlisida qilgan ishidan chin ko'ngildan pushaymondaligi, boshqa bu holat takrorlanmasligi, o'ziga tegishli xulosa chiqarib olganligi, iqtisodiy ahvoli og'irligi, oilada yagona boquvchi ekanligi, xato qilganligini tushunganligini aytadi. Suddan jazo qo'llashda yengillik berishni, hammadan kechirim so'raydi.

Sud, ish hujjatlari bilan tanishib chiqib, huquqbuzarning aybi uning sud majlisida bergan iqrorlik ko'rsatuvidan tashqari, dastlabki surishtiruv organi tomonidan tuzilgan ma'muriy bayonnoma, ashyoviy dalilni olish bayonnomasi, tushuntirish xatlari hamda to'plangan ish hujjatlari asosan to'liq o'z isbotini topgan degan xulosaga keldi.

Sud, huquqbuzarga jazo qo'llashda ma'muriy ish hujjatlarini o'rganib chiqib unga O'zbekiston Respublikasi MJtKning 61-moddasi 1-qismi bilan MJtKning 33-moddasini qo'llab, qonun sanksiyasida nazarda tutilgan jarima jazosining eng



kamidan ham kamroq miqdorini qo'llashni lozim deb topdi.

Huquqbuzarga bazaviy hisoblash miqdorining ikkidan bir qismi miqdorida 170 000 so'm jarima jazosi qo'llanildi.

Afsuski, turli sabablarga ko'ra, noqonuniy ishlarga qo'l urayotgan, demakki, o'z galar mulkiga ko'z olaytirayotgan metallurglar oramizda borligi judayam achinarli holatdir. Xulosa qilib aytganda, arzimadek ko'ringan bu tashmachilik sabab bir inson hamkasblari, oilasi oldida uyatga qoldi.

Farhod ZOKIROV,

jinoyat ishlari bo'yicha Bekobod shahar sudi sud'yasi.

INTIZOMIY JAZO OLGAN XODIMGGA USTAMA TO'LANMAYDIMI?

Xodimga intizomiy jazo qo'llanilgandan so'ng unga beriladigan barcha mukofotlar, qo'shimcha to'lovlar, ustamalar berilmaydimi?

F. Egamov.

Keling bir tahlil qilib o'tamiz. Mehnat kodeksining 299-moddasiga asosan ishdagi yutuqlar uchun xodimga nisbatan rag'batlantirish choralari qo'llanilishi mumkin.

Rag'batlantirish turlari, ularni qo'llash tartibi jamoa kelishuvlarida, jamoa shartnomasida, ichki mehnat tartibi qoidalari hamda mehnat to'g'risidagi boshqa huquqiy hujjatlarda va mehnat shartnomasida belgilanadi.

O'ziga nisbatan intizom haqidagi ustavlar va nizomlarning amal qilishi tatbiq etiladigan xodimlarga nisbatan rag'batlantirish turlari, ularni qo'llash tartibi intizom to'g'risidagi tegishli ustavlar va nizomlarda belgilanadi.

Shu o'rinda qiziq savol tug'iladi. Rag'batlantir-

ishga nima kiradiyu nima kirmaydi?

Mazkur moddaning 4-qismida ish haqi, mukofotlar, qo'shimcha to'lovlar, ustamalar va mehnatga haq to'lash tizimida nazarda tutilgan boshqa to'lovlar rag'batlantirish turlari jumlasiga kirmaydi deb belgilangan. Intizomiy jazoning amal qilish muddati ichida intizomiy javobgarlikka tortilgan xodimlarga mehnatga haq to'lash tizimida



nazarda tutilgan mukofotlarni to'lash to'g'risidagi masala mukofotlash haqidagi tegishli nizomlarda hal qilinadi deyilgan.

Qanday to'lovlar rag'batlantirish to'lovi hisoblanadi unda? degan o'rinli savol tug'ilishi tabiiy. Moddaning 5-qismiga asosan intizomiy jazoning amal qilish muddati ichida xodimga nisbatan rag'batlantirish choralari, shu jumladan mehnatga haq to'lash tizimiga kirmaydigan va mehnat natijalariga asoslanmagan mukofotlar ham (bayramlar, shu jumladan kasb bayramlari, yubileylar munosabati bilan va hokazolar) qo'llanilmaydi.

Ya'ni tahlil yakunida shunday xulosa qilish mumkinki, xodim intizomiy jazo olgan davrida unga ish haqi, mukofotlar, qo'shimcha to'lovlar, ustamalar va mehnatga haq to'lash tizimida nazarda tutilgan boshqa to'lovlar to'lanishi kerak. Ammo bayramlar, shu jumladan kasb bayramlari, yubileylar munosabati bilan to'lanadigan to'lovlar to'lanishi mumkin emas.

FOYDALANILMAGAN TA'TILLARDAN FOYDALANISH MUMKINMI?

O'tgan yilgi yoki undan oldingi yillardagi foydalanilmagan ta'tillarim bor. Bu ta'tillarni olsam bo'ladimi?

K. Alijonov.

Respublika Mehnat Kodeksining 230-modda 1-qismiga asosan har yilgi mehnat ta'tili har yili, ushbu ta'til berilayotgan ish yili tugaguniga qadar berilishi kerak.

Mehnat kodeksining 230-moddasi 2-qismiga asosan ishlab chiqarish xususiyatiga ega sabablarga ko'ra joriy yilda har yilgi mehnat ta'tilini to'liq berish imkoni bo'lmagan alohida hollarda xodimning roziligi bilan ta'tilning o'n to'rt kalendar kundan ortiq bo'lgan qismi keyingi ish yiliga ko'chirilishi mumkin bo'lib, ushbu yil davomida undan foydalanilishi shart. Ya'ni xodim har yili ta'tilining ma'lum qismidan foydalanishi kerak.

O'tgan yilgi ta'tilni bu yilgi ta'tilga qo'shib yuborish mumkinmi? Mehnat kodeksida bu masala yuzasidan ta'qiq mavjud emas.



Xodim ish beruvchi bilan kelishib o'tgan yilgi ta'tilni bu yilgi ta'tilga qo'shib olsa bo'ladi.

Xodim masalan tug'riq ta'tilida bo'lib yoki mehnatga layoqatsizlik ta'tilida bo'lib yillik ta'tilga ish beruvchi tomonidan chiqarilmadi. Bunday holatda foydalanilmagan ta'til yo'q bo'lib ketmaydi. Mehnat Kodeksining 234-moddasiga asosan mehnat shartnomasi bekor qilinganda xodimga barcha foydalanilmagan har yilgi asosiy va qo'shimcha mehnat ta'tillari uchun pulli kompensatsiya to'lanadi.

ALKOGOL MAHSULOTINI ISTE'MOL QILGANLIK UCHUN JAZO BORMI?

Ma'lumki, alkogol mahsulotlarini ish joylarida bo'lgani kabi yana ba'zi boshqa joylarda ham iste'mol qilish mumkin emas. Bu qoidani buzganlar uchun qanday jazolar belgilangan?

N. Nizomov.

"2015-yil 29-dekabrda "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida Qonuni qabul qilingan. Qonunga asosan jamoat joylarida alkogol mahsulotini iste'mol qilganlik uchun javobgarlik belgilangan.

Masalan, ish joylarida, ko'chalarda, stadionlarda, xiyobonlarda, istirohat bog'larida, jamoat transportining barcha turlarida va boshqa jamoat joylarida alkogol mahsulotini iste'mol qilish, bundan to'ylar, yubileylar hamda boshqa tantanalar va marosimlar o'tkaziladigan joylar, shuningdek, alkogol mahsulotini quyib realizatsiya qilishga ruxsat etilgan savdo va umumiy ovqatlanish ob'ektlari mustasno bo'lib, eng kam ish haqining ikkidan bir qismi miqdorida jarima jazosi qo'llaniladi.

Xuddi shunday huquqbuzarlik ma'muriy jazo chorasi qo'llanilganidan keyin bir yil davomida takror sodir etilgan bo'lsa, eng kam ish haqining ikkidan bir qismidan ikki baravarigacha miqdorida jarima solishga yoki o'n besh sutkagacha muddatga ma'muriy qamoqqa olishga sabab bo'ladi.



PIYODALARGA LOYQA SACHRATGANLAR JAZOLANADIMI?

Qorli, yomg'irli kunlarda ba'zi haydovchilar transport vositalarida piyodalarga suv, loyqa sachratib o'tib ketadi. Mana shundaylarni qonun tomondan tartibga chaqirsa bo'ladimi?

S. Bahromov.

Haydovchilarning transport vositalarida yo'lovchilarga loyqa sachratishi uchun ma'muriy javobgarlik belgilangan.

Respublika Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi 128-moddasiga asosan haydovchilarning transport vositalarini piyodalar yo'lklaridan yurgizishi, yo'l belgilari yoki yo'lning qatnov qismidagi chiziqlar bilan belgilab qo'yilgan talablarga rioya etmasligi, odam tashish, transport vositalarini quvib o'tish, yo'nalishli transport vositalari to'xtaydigan bekatlardan yoki piyodalar o'tish joylaridan yurish, tashqi yoritish asboblaridan foydalanish qoidalarini buzishi, xuddi shuningdek yo'lovchilarga loyqa sachratganligi uchun bazaviy hisoblash miqdorining ikkidan bir qismi miqdorida jarima solishga sabab bo'ladi.

Ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan xuddi shunday huquqbuzarlikni ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin bir yil davomida takror sodir etish, bazaviy hisoblash miqdorining bir baravari miqdorida jarima solishga sabab bo'ladi. Xuddi shunday huquqbuzarlikni ikki marta ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin bir yil davomida takror sodir etish, - bazaviy hisoblash miqdorining uch baravari miqdorida jarima solishga sabab bo'ladi.

Bu huquqbuzarlikni uch marta va undan ortiq ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin bir yil davomida takror sodir etganlarga bazaviy hisoblash miqdorining to'rt baravari miqdorida jarima solinadi yoki transport vositasini boshqarish huquqidan olti oy muddatga mahrum etiladi.

TUSHKUNLIK KASALLIKMI YOKI...

Psixologlarning fikricha depressiya, ya'ni tushkunlik bu – kasallikdir. Uni vaqtida davolamasa turli xil asoratlarga olib kelishi mumkin. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, Yer sharida tushkunlik bilan ro'yxatga olinganlar soni 200 milliondan ziyod. Biroq aksariyat mutaxassislar fikricha, tushkunlik bilan kasallangan har uch bemorning biri vrach nazoratida turadi, xolos. Boshqa bir mutaxassislar fikricha, tushkunlik bilan kasallanganlar sonini aniqlash mushkul. Chunki tushkunlik turli xil klinik ko'rinishda namoyon bo'lmoqda va hamma vaqt ham tashxis to'g'ri bo'lib chiqavermaydi. Buning ustiga tushkunlik bilan og'rikan bemorlarning hammasi ham shifokorlarga murojaat qilavermaydi.

Kundalik tashvishlar, uyda va ishdagi kelishmovchiliklar, shaxsiy hayotdagi muammolar har qanday insonning tinchini buzadi, sog'lig'iga zarar keltiradi. Aynan shunday



hayot, shovqin-suron, baqir-chaqirlar, ishning yurishmasligi hozirgi zamonda juda keng ildiz otib borayotgan kasallik – tushkunlikning kelib chiqishiga asosiy sabab bo'lib qolmoqda.

Xo'sh tushkunlikka tushgan odamni qanday bilish mumkin?

Bunday insonlarning kayfiyati yomon bo'ladi, hech narsaga qiziqmaydi. Eng qadrdon odamlari

bilan ham muloqotda bo'lishdan qochadi. Atrof muhitga befarq bo'lib, faqat o'zining muammosi va his-tuyg'ulariga o'ralashib qoladi. Go'yoki butun hayoti shu muammoga bog'lanib qolgandek, o'zini baxtsiz, yolg'iz, hech kimga kerak emasdek sezadi. Kuchli tushkunlikka tushgan odamlar hech narsa yemay-ichmay, qorong'u xonaga qamalib olishlari mumkin. Bunday odamlarning ishtahasi yo'qoladi yoki tinimsiz ovqat yeya boshlaydi. Buning natijasida tana vazni ortib ketib, turli xil kasalliklarning kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Tushkunlikka tushishning keng tarqalgan og'ir turlaridan biri distimiyadir. Bunda odam o'zini doim omadsiz, keraksiz his qiladi. Bunday ahvoldan chiqib keta olmaydi. Doim o'z joniga qasd qilishni o'ylaydi.

Tushkunlikda xotira va fikrlash jarayoni buzilishlari ko'p uchraydi. Parishonxotirlik, xotira pasayishi, ayniqsa, eslab qolishning buzilishi juda ko'p kuzatiladi. Fikrlar karaxtligi – Tushkunlikning asosiy belgilaridan biri.

Tushkunlikka tushmaslik uchun har qanday hodisalarni yuragingizga olmag. Bu dunyoda hamma narsa o'tkinchi. O'tib ketgan ko'ngilsiz voqea yo bo'lmasa kelajakni o'ylab bezovta bo'lmang.

YAXSHI NARSALAR HAQIDA O'YLANG!

Bugun bilan yashashga harakat qiling. Tez-tez toza havoda piyoda sayrga chiqib turing. Ishdan so'ng kechasi qolib ishlamang. Vaqtli yotib, vaqtli turing. Eng avvalo fikrlaringizni tartibga keltiring. Yaxshi narsalar haqida o'ylashga, sizni xafa qiladigan xotiralarni unutishga harakat qiling. Hayotning har bir daqiqasidan, har bir hodisasidan yaxshilik, go'zallik topishga, kun davomida biror bir kishiga kichkinagina bo'lsa ham yaxshilik qilishga intiling. Bu o'zingiz uchun foydali. Birovga yaxshilik qilsang u senga 10 barobar bo'lib qaytadi. Bu tabiat qonuni. Hammaga kulib qarang. Bu dunyoda sizdanda baxtsizroq odamlar ham

yashab yurishganini unutmang.

Doim hayotda erishgan yutuqlaringizni eslab turing. Kun davomida sog'lingiz, oilangizning tinchligi, omadingiz uchun shukrona keltirib yuring. Qachonki o'zingizga, o'z kuchingizga, irodangizga qalban ishonar ekan-siz, har qanday depressiya holatidan chiqib keta olasiz. Unutmang, ertangi kun bugungidanda baxtliroq, omadliroq, fayzliroq bo'ladi. Ertangi kunga ishonch bilan qarang. Siz fikran kuningiz qanday o'tishini rejalashtirsangiz, kun shunday o'tadi.

Dilbar HAMDAMOVA,
psixolog.

KASAL BO'LMASLIK UCHUN

1. Vaqtida uxlang. Uyqu va dam olishning yetishmasligi tushkunlikni yanada kuchaytiradi. Shuning uchun, kuniga kamida 8 soat uxlashni ta'minlash kerak. To'liq dam olish uchun soat 22:00 gacha uyquga yotish kerak. Yotoqxonada tinch va qorong'u bo'lishi lozim. Xonadagi havo haroratiga ham e'tibor qaratish muhim.

2. Dam oling. Zamonaviy odamning hayot ritmi ko'proq poygaga o'xshaydi, ular ko'p ishlab, kam dam oladi. Tushkunlikka tushganlar esa ko'proq dam olishi kerak.

3. Vaziyatni o'zgartiring. Ko'pincha, ruhiy tushkunlikdan chiqish uchun

sharoitni o'zgartirish kifoya: uyda mebellar o'rnini almashtirish, sayohatga borish, go'zal tabiat quchog'ida bo'lish, teatr va ko'rgazmalarga tashrif buyurish, yangi turmush tarzini yaratish lozim.

4. Atrof-muhitni o'zgartiring. Jamiyat insonga katta ta'sir ko'rsatadi. Tushkunlikka tushgan, baxtsiz odamlar bilan muloqot depressiya holatiga olib keladi. Shuning uchun, faol, quvnoq va baxtli odamlar bilan muloqotda bo'ling. Yangi qiziqarli odamlar bilan tanishish uchun biron bir o'quv mashg'ulotlariga borish, sevimli mashg'ulot klublariga qo'shilish mumkin.



IJOBIY TA'SIR KO'RSATADI

Asrimiz boshida bir guruh AQSHlik olimlar turli tovushlarning inson miyasiga ta'siri bo'yicha izlanishlar olib boradi. Tadqiqotlar jarayonida barcha sadolar bosh miyaning hujayralariga salbiy yoki ijobiy ta'sir yetkazishi aniqlangan. Ya'ni har qanday tovush qabul qilishda bosh miyaning har bir hujayrasi o'ziga xos tartib bilan tebranadi va o'z atrofidagi hujayralarga ham ta'sir o'tkazadi. Ma'lumotni yetkazishda bu hujayralarning faoliyati, tebranish va asab tolalarining ishlab chiqarilish shaklida bo'ladi.

Tadqiqot jarayonida depressiyaga chalingan bir guruh bemorlarga turli xil tovushlar va musiqa ohang-

lari eshittirilib ularning miya hujayralari faoliyati o'rganiladi. Sokin musiqa va mayin tovush inson miyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatar ekan.

Ammo, olimlar bundan qoniqishmaydi va ishtirokchilarga Qur'on oyatlaridan qo'yib beradi. Natija shu darajada xayratlanarli bo'ladiki, olimlar bu holatdan taajubga tushadi. Ya'ni, Qur'oni karim tinglagan bemorlarning markaziy asab tizimi va nerv tolalarida qayta dasturlashga o'xshash jarayon yuzaga keladi. Bu degani, hatto xotirasi yo'qolish arafasidagi odamning xotirasi qayta tiklanadi. Xuddi chaqaloqnidek...

SAMARALI USUL

Janubiy Avstraliya universiteti mutaxassislari jismoniy mashqlar antidepressantlarga qaraganda bir yarim baravar yaxshi ekanligini aniqlashdi.

Ularning tadqiqot natijalari "British Journal of Sports Medicine" jurnalida e'lon qilindi.

Antidepressantlar va psixoterapevt tavsiyasi asosidagi terapiya depressiya belgilari bilan kurashishning asosiy usullaridir. Sport ko'pincha ushbu ro'yxatga qo'shila-

di, ammo terapiyaning asosiy usullaridan biri sifatida emas, tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, bu noto'g'ri.

Olimlar depressiyaga yo'liqqan 130 mingdan ortiq odam haqidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan yuzga yaqin tadqiqotning metatahlilini o'tkazishdi. Ma'lum bo'lishicha, bir necha hafta davomida jismoniy faollik depressiya va tashvish alomatlarini sezilarli darajada kamaytirishga yordam beradi.

Ta'kidlanishicha, mashg'ulotlar antidepressantlar va mutaxassis bilan maslahatlashishdan ko'ra bir yarim baravar samaraliroq bo'lgan. Tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, ularning tadqiqot natijalari depressiyani davolash strategiyalarini qayta ko'rib chiqish muhimligini ko'rsatadi, deyiladi ufatime.ru saytida.

Sahifani shifokor Mirzaburxon DO'SMURODOV tayyorladi.



* SUPERLIGA-2024 * SUPERLIGA-2024 * SUPERLIGA-2024 * SUPERLIGA-2024 * SUPERLIGA-2024 * SUPERLIGA-2024*

FUTBOL MUXLISLAR UCHUN

Joriy yilning 1-mart kuni Superligada mavsum boshlandi. Superliga o'yinlari rejaga binoan 30-noyabr sanasigacha davom etadi. To'qqiz oy mobaynida futbol ishqibozlarimiz ichki chempionat o'yinlarini tomosha qiladilar. Sevimli jamoalarining g'alabasidan zavq oladi, chiroyli gollaridan ko'ngillari osmon qadar yuksaladi.

Chempionat yakuniga ko'ra 14-o'rinni egallagan jamoa Superligani tark etadi. 12- va 13-o'rinni egallagan jamoalar Pro liganing uchinchi va to'rtinchi klublari bilan o'tish bahslarida qatnashishadi. Bunda o'zaro o'yinda Superligada qaysi jamoalar o'ynashiga oydinlik kiritiladi.

2024-yilgi mavsum har tomonlama qiziqarli, murosasiz kurashlarga boy o'tishi kutilayapti. Sevimli jamoamiz

– “Metallurg” ham o'z oldiga katta vazifalarni qo'yimoqda. Jamoaning avvalgi mavqeini tiklash, kuchli klublar qatoriga qo'shilish, keyingi mavsumlarda medallar uchun kurash olib boruvchi jamoani shakllantirish yo'lida bu yil harakat qilinadi. Bu borada esa “Metallurg” murabbiylar shtabi hamda futbolchilariga kuch quvvat va omad yor bo'lishini tilaymiz!

"METALLURG"NING YANGI O'YINCHILARI

“Metallurg” 2024-yilgi mavsum arafasida 8 nafar yangi o'yinchi bilan shartnoma imzoladi. Ulardan uch nafari – Mirg'iyos Sulaymonov, Abbos Otaxonov, Hazratjon Tursunqulov turli muddatli tanaffusdan keyin qadrton jamoasiga qaytishdi. “Metallurg” tarkibini shuningdek, uch

nafar legioner – Mirko Milichkovich, Boban Jorjevich hamda Davronjon Ergashevlar bilan to'ldirdi.

Bundan tashqari jamoaga tajribali darvozabon Rahimjon Davronov va yarim himoyachi Sirojiddin Qo'ziyevlar kelib qo'shildi. Ular jamoani kuchaytiradi, deb umid qilamiz.



JAMOAMIZ BIR QATOR YUBILEYLAR BO'SAG'ASIDA

Superliganing bu yilgi bahslarida bekobodlik futbol ishqibozlari bir qator kichik yubileylar shohida bo'lishlari kutilayapti. Jumladan, “Metallurg” bugun, safarda “Dinamo”ga qarshi o'tadigan 4-turda kuchlilar safidagi 750-uchrashuvini o'tkazadi. Vesko Steshevich shogirdlari bu yilgi mavsumni sermahsul boshlashsa, “Metallurg”ning 900-goli yaqin turlar ichida kuzatiladi. Hozirgacha bekobodliklar raqiblar darvozasiga 897 ta gol urgan.

Bevosita “Metallurg”ning kuchlilar safidagi statistikasiga to'xtaladigan bo'lsak, hozirgacha bekobodliklar 749 ta o'yinda maydonga tushishgan: 248 ta g'alaba, 158 ta durang, 345 ta mag'lubiyat. Kiritilgan va o'tkazib yuborilgan to'plar farqi – 897:1123.

“Metallurg”ning kuchlilar safidagi eng yirik g'alabasi – 6:0 (2001 – “Semurg”, 2006 – “Xorazm”, 2016 – “Mash'al”). Eng yirik mag'lubiyati esa – 0:7 (2003 – “Navbahor”, 2004 – “Nasaf”).

G'ALABAGA HAQLI EDIK...

Superliganing birinchi turida Pro liga g'olibi sifatida qaytgan “Lokomotiv”ga qarshi 3-mart kuni bo'lgan safar uchrashuvi juda shiddatli va qiziqarli kurashlar ostida o'tdi. Garchi uchrashuvni tezkor o'tkazib yuborilgan gol bilan boshlasak-da, “Metallurg” ilk turda g'alabaga haqli o'yin namoyish etdi. Yutuqqa yaqin turgandik ham. Afsuski, so'nggi daqiqalarda diqqat-e'tiborning yo'qolishi oqibatida durang bilan kifoyalidik...



Bevosita o'yin tafsilotlariga to'xtaladigan bo'lsak, “Metallurg” butun o'yin davomida “Lokomotiv”dan bir bosh ustunligini namoyon etdi. Hatto o'yinning 8-daqiqasida tezkor o'tkazib yuborilgan gol ham “Metallurg”ning irodasini sindira olmadi. Aksincha bekobodliklar o'yinga yanada shahd, shiddat bilan kirishishdi. Birinchi taymning oxiri hamda ikkinchi bo'limning avvalida kiritilgan gollar evaziga hisobda oldinga chiqib oldik. 44-daqiqada Shahzodbek Ubaydullayev penaltini golga aylantirgan bo'lsa, 51-daqiqada Shahzodbek G'ofurbekovning o'ng qanotdan reydingi chap qanot vingeri Abror Toshqo'ziyev golga aylantirdi. Bu to'pning kiritilishi-da markaziy hujumchi Boban Jorjevich ham bevosita ishtirok etdi.

Afsuski, safar o'yinida uch ochkolik bo'ldik,

deb barchamiz ishonib turgan bir mahal temiryo'lchilarning tezkor qarshi hujumini o'tkazib yubordik. O'yinning 87-daqiqasida chap qanotdan jarima maydoni ichiga uzatib berilgan to'pni Dilshod Komilov boshi bilan urib, darvoza to'riga tushirdi. Uning dubli “Lokomotiv”ni mag'lubiyatdan qutqarib qoldi – 2:2.

OMAD KELMASA QIYIN...

Superliga doirasidagi 2-tur uchrashuvini 8-mart kuni Olmaliq shahrida “So'g'diyona”ga qarshi o'tkazgan Bekobodning “Metallurg” jamoasi yana durang natija bilan kifoyalandi. Bu safar ham raqibga nisbatan g'alabaga yaqinroq, haqliroq bo'lsak-da, o'yinda hisob ochildi – 0:0.

Bevosita o'yin davomida ikki xil taymning guvohi bo'ldik. Birinchi bo'limda garchi mezbon maqomida bo'lsak-da, hududiy ustunlik va tashabbus jizzaxliklar tomonida bo'ldi. Ivan Boshkovich shogirdlari maydonning har bir qarichida to'p uchun kurashda “Metallurg”ga imkon bermadi. O'z navbatida jizzaxliklarning hujumlari ancha xavfli ko'rinish oldi. Faqatgina hujum yakunida ular oqsashdi. Ayrim vaziyatlarda esa



himoyachlarimiz hushyor harakat qilishdi.

Ikkinchi taymda esa tashabbus to'lig'incha Vesko Steshevich shogirdlari qo'lga o'tdi. Buni yaratilgan vaziyatlarda ham ko'rish mumkin. Ivan Yosovichning zarbasidan so'ng to'p darvoza to'siniga tegib qaytdi. Burchak to'pi amalga oshirilganda Davron Ergashevning bosh bilan zarbasidan so'ng Milan Mitrovich jamoasini muqarrar goldan qutqarib qoldi. Shahzod Ubaydullayev, Sirojiddin Qo'ziyev, Shahzodbek G'ofurbekovlarning qulay vaziyatlardagi zarbalariga esa biroz aniqlik yetishmadi. “Metallurg”ga shu kuni omad yaqqol yetishmadi. Natijada qatorasiga ikkinchi o'yinda bekobodliklar raqib bilan ochkolarni baham ko'rishga majbur bo'lishdi.

DASTLABKI MAG'LUBIYAT

“Metallurg” 3-turni chempionlikka asosiy da'vogar “Neftchi” maydonida o'tkazib, 1:0 hisobida imkoniyatni boy berdi.

“Neftchi”ga qarshi o'yinda jamoamiz peshqadamga munosib qarshilik ko'rsatdi. Ayrim jabhalarda hatto ustunlik ham qildi. Afsuski, yana omadsizlik “Metallurg”ga pand berdi. Qarshi hujumlarda yaratilgan vaziyatlardan yigitlarimiz afsuski foydalana olishmadi. “Neftchi” esa o'yin oxirida g'alabani ilib ketdi.

Gol kiritilishidan oldin “Metallurg” hujumga o'tdi. Shahzodbek Ubaydullayevni maydonning ikkinchi qismida “Neftchi” himoyachisi ochiqchasiga yiqitdi.

Uchrashuvni boshqarib borgan G'ayrat Jo'rayev mezbonlar o'yinchisini maydondan chetlatish u yoqda tursin, hatto “sariq” ham ko'rsatmadi. Biroz o'tib bekobodliklar maydonda jarohatlangan o'yinchiga tibbiy yordam ko'rsatilishini ta'minlash maqsadida to'pni ataylab maydon tashqarisiga chiqarib yuborishdi. “Vaqtini qizg'ongan” “Neftchi” esa feyr-pleyni unutilib “Metallurg” darvozasi tomon intildi. Abbos Otaxonovga bu hujumni qo'pollik bilan to'xtatib qolishdan boshqa chora qolmadi. Oqibatda aynan shu standart “Metallurg” darvozasi-ga to'p kiritilishi bilan yakunlandi.

Komiljon JUMAYEV,
tayyorladi.

ISKANDARNING BO'SH KETGAN QO'LI

Hamma iqlimlarni qo'lga kiritgan shoh Iskandar jahon mamlakatining taxtiga ega bo'ldi. U borib olmagan biron yer qolmadi. Biron yer qolmadi, u bormagan bo'lsin. Dunyodagi hamma yer va suv uning hukmiga o'tdi.

Osmoaning ko'k gumbazi ustida xutba o'qib, adolat tamg'alarini (oltin, kumushga emas), yulduzlariga urdi. Shohlar o'z ixtiyorlari bilan unga qul bo'lishdi, unga qul bo'lish bilan ular faxrlandilar.

U ham shoh edi, ham valiy, ham payg'ambar. Uning tabiati esa donishmandlik bilan rostlangan edi. Uning asl zotida Jamshidlik odatlari bor edi. Oddiy ko'zga unga jahonni ko'rsatadigan jom bo'lib xizmat qilardi. Yetti qavat osmon hukmronligi unga muassar, yetti iqlim unga

bo'ysungan edi.

Shunday yuksak martabali baxtiyor podshoh bu o'tkinchi dunyodan o'tayotganda qiziq bir o'jizlik va bechoralik holatini boshidan kechirdi. Oldida qiziq bir o'voralik yuz berdi. Unga na hakimlari yordam qila oldi, na xizmatkorlari, na qullari uning farmonini bajara oldi. Ular barchasi bu yashil bog'da qolib, u bir o'zi qora tuproqning ichiga yo'l oldi. Bunday halokat uning ichini o'rtagach, shunday so'zlar bilan u ichini bo'shatdi.

- Shu nafasda men pastga qarab borayapman, shohlik nog'orasi safarga chorlamoqda. Kim o'z or-nomus shartini saqlamoqchi bo'lsa, mening unga shunday vasiyatim bor: vaqtiki pok bo'ston qushi men tomon uchib kelib, poklik ayvoni-

ga borishimni eslatgan chog'da, oh tortib, olamni qorong'i qilib, tobutdan menga uxlash uchun joy hozirlab, yo'limni qabr tomon boshlar ekansizlar, bir qo'limni tobutning yonidan chiqarib qo'yinglar. Kishilar tobutga nazar solar ekanlar, ibrat yuzasidan shu qo'lga qarasinlar. Bilsinlarkim, yetti o'lka podsho-

si, yetti osmon mushkullaridan xabardor odam, endi jismida jon yo'q, bu makondan, bu jahondan bo'sh qo'l bilan ketmoqda. Kimki jahon mamlakatini havas qilsa, ushbu qo'l unga yetarli tajribadir.

Alisher NAVOIY.

"Hayrat ul-abror" dostonidan.

BILIMINGIZNI
SINAB KO'RING!

Sharq mutafakkirlaridan biri shunday deydi: Insonlar dunyoni dengizga, oxiratni uning sohiliga, insonlarni esa unda safar qiluvchilar deb aytishgan. Insonlar dengiz sohiliga borishi uchun kema kerak bo'ladi. Xo'sh kemani nimaga qiyoslashgan?

Dunyodagi eng mashhur bir binoning kiraverishida, Qur'oni Karimning 89-surasidan oxirgi 4 oyati yozilgan: "Sen osoyishta bo'lgan qalb! Sen Xudoning oldiga mamnuniyat va erishgan xursandchiliklaring bilan qaytgin! Mening qullarim bilan kir! Mening jannatimga kir!" so'zlari bitilgan.

Bu qaysi bino?

Luqmoni Hakim farzandiga 100 ta nasihat qildi. 100 ta nasihatni unutmasligi uchun ularni uchta nasihatda ifoda etdi. Bu uchta so'zning ikkitasini esda saqlab, bitasini unutib yubor, dedi. Nimani esda saqlab, nimani unutib yuborish kerak, deb hisoblaysiz?

Hech qachon aynimaydigan mahsulot nima, u haqida ham xalq orasida maqol bor! U qanday mahsulot?

Javoblarni gazetaning keyingi sonidan bilib olasiz.

Gazetaning o'tgan sonidagi savollarning javoblari.

- 40 ta ot kiprik, ko'l esa ko'zdir.
- Metroning bekatga kirib kelishi.
- Tish pastasi. Dasturxonadagi nozu ne'matlar.
- Xiva, Ichanqa'la.
- Bu raqamlar muzning qalinligi haqida edi, ya'ni shunday qalinlikdagi muz inson va transportlarni ko'tara olishi haqida. Bu me'yorlar buzilsa muz yorilib ketadi.

JALOLIDDIN RUMIY HIKMATLARI

Saxovat va himmatda o'qar daryo kabi bo'l. Shafqat va marhamatda kulgan quyosh kabi bo'l.

O'zga aybin yopishda qorong'u tun kabi bo'l.

G'azab va jahlda o'lik kabi bo'l.

Tavoze va kamtarlikda tuproq kabi bo'l.

Bag'ri kenglik va mehrda ulkan dengiz kabi bo'l.

Asling kabi ko'rin yo ko'ringaning kabi bo'l.

GAROV PULI

Kichkinagina shaharchaga bir sayyoh keldi va kichkinagina mehmonxonaga kirdi. Mehmonxona egasiga 100 dollar garov puli qoldirdi va xonalar bilan tanishishga kirishib ketdi. Mehmonxona egasi qo'lga tushgan naqd puldan zudlik bilan foydalanishga ahd qildi. U yugurib borib qassobdan



qarzini uzish uchun 100 dollarni uzatdi.

Qassob ham tezda borib fermerdan qarzini uzdi.

Fermer traktorini tuzatib bergan ustadan qarzini uzolmay xunob bo'lib o'tirgandi.

Shaxdam qadamlar bilan ustaga pulni uzatdi.

Usta oziq-ovqat olaverib do'konchidan 100 dollar qarz bo'lib qolgani esiga tushdi va do'konchining yonida yuzi yorug' bo'ldi. Do'konchi anchadan beri do'konni tozalab yurgan farroshning oyligini berolmayotgandi.

100 dollarni olgan farrosh ijara pulini to'lash uchun mehmonxonaga yugurdi va xo'jayinga pulni uzatdi. Xo'jayin pulni olgan paytda yuqori qavatdan sayyoh tushdi va bu xonalar unga to'g'ri kelmasligini aytib, pulini qaytarib olib, jo'navordi.

XANDALAR

Oshiq yigit ma'shuqasiga dil izhori qilyap-ti:

- Azizam dunyoda men uchun eng qimmatlisi sizensiz...

- Nima bo'ldi. Mashinangizni sotib yubor-dingizmi?

Taksi haydovchisi mijozdan so'ramoqda:

- Sizni qaerga olib boray?

- Uyimizga!

- Uyingiz qaerda?

- Qo'shning uyi oldida.

- Qiziq ekansiz-ku, qo'shningiz kim o'zi?



- Qo'shningiz sizku axir!

Boks. Tanaffus payti:

- Raqibingni boplab qo'rqitding-da!

- Yo'g'-ye, qanaqasiga?

- U seni urib o'ldirib qo'ydim, deb o'yladi.

Er-xotin tish shifokori huzuriga kirib borishdi.

- Og'riqsizlantirib olaymi yoki shundoq olib tashlayveraymi? - so'radi shifokor.

- Shunday olib tashlayvering, - javob berdi er.

- Qoyil, og'riqdan qo'rqmaydigan mardlar ham bor ekanku.

- Albatta bor. Qani xotin, og'riyotgan tishingni ko'rsat.

Po'lat o'tda toblanadi, odam mehnatda
**Metallurg
Minbari**

MUASSIS:
O'zbekiston metallurgiya
kombinati aksiyadorlik jamiyati.

WWW.uzbeksteel.uz

Muharrir:
Ismadiyor MAMATQULOV

TAHRIRIYAT: Bekobod shahar
"O' zmetkombinat"
aksiyadorlik jamiyatining
Metallurglar madaniyat saroyida
joylashgan.
Tel: 10-17, 70-214-19-24

Gazeta oyda bir marta
chiqadi.

Gazeta tahririyat kompyuterida
terilib, sahifalandi va "Niso
nashriyot va matbaa uyi" MCHJ
bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili:
O'rta Chirchiq tumani "Mash'al"
mahallasi, "Markaziy" ko'cha, 1-uy.

Sahifalovchi:
Inom XOJIMURODOV

Bosishga topshirish vaqti 17.00
Bosishga topshirildi-15.30
Adadi 600. Bichimi A-3.
ISSN 2181-645X
Gazeta "O' zmetkombinat"
AJda bepul tarqatiladi.